

YAHUDIY JAMOALARINING MARKAZIY OSIYOGA KIRIB KELISHI VA ULARNING MIGRATSIYASI

Rasulova Mohichehra Maston qiz

Osiyo Xalqaro Universiteti,

“Tarix va filologiya” kafedrası o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14217102>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro yahudiylarining Markaziy Osiyoga migratsiyasi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Iyerusalim, Sion qal’asi, Yahudiya podsholigi, Iuda, Makavey, Bar Koxba qo’zg’oloni.

ENTRY OF JEWISH COMMUNITIES INTO CENTRAL ASIA AND THEIR MIGRATION

Abstract. This article analyzes the migration of Bukhara Jews to Central Asia.

Key words: Jerusalem, the fortress of Zion, the kingdom of Judea, Judah, Maccabees, Bar Kokhba revolt.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, mil.avv. II mingyillikning o’rtalarida Falastinning katta qismini o’zlashtirgan, qadimgi xabiri qabilasining avlodlari bo’lmish ko’chmanchi yahudiy qabilalari, mil.avv. X asrning boshlarida aynan shu yerda Dovud (1000-965) boshchiligida Isroil-Yahudiya podsholigiga asos solishadi. Davlat poytaxi Iyerusalim shahri bo’lib, u yerda mustahkam Sion qal’asi joylashgan edi. Dovud va undan keyin taxtga o’tirgan Sulaymon (965-928) davrida mamlakat har tomonlama rivojlanib, gullab-yashnagan. Sulaymon vafot etgach Isroil- Yahudiya podsholigi vaqt o’tishi bilan rivojlanish o’rniga tanazzulga yuz tutgan.

Xullas hammasi barbod bo’lib, mamlakat ikkiga bo’linib ketgan. Ya’ni janubda Yahudiya, shimolda esa Isroil degan davlatlar tashkil topgan¹. Keyinchalik esa o’z davrida qudratli kuchga ega bo’lgan qo’shni davlatlar ushbu hududlarga birin-ketin bostirib kirib yahudiylarni asoratga solganlar. Aynan mana shunday bosqinchilik yurishlari natijasida asirga olingan, o’z ona vatanidan majburan ko’chirilgan yahudiylar asta-sekinlik bilan boshqa o’lkalarga tarqala boshlagan.

Quyidagi turli davrlarda sodir bo’lgan tarixiy voqealarni tahlil qilgan holda, yahudiylarning dunyo uzra tarqala boshlashiga, shu jumladan O’rta Osiyoga birinchi qadam qo’yishlariga sabab bo’lgan deyish mumkin:

¹ Niyozov N. Buxoro yahudiylari tarixidan lavhalar. Buxoro. 2016. –B.15.

Mil. avv. X asrda, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, podshoh Sulaymon vafotidan so'ng uning vorisi Rovoamga Isroilni o'z qo'lida saqlab qolish nasib etmadi. Chunki hali Sulaymon davrida davlatga qarshi bosh ko'targan va oxir oqibat Misrga qochib ketgan Iyerovoam, Misr qo'shini madadi bilan Isroilni qo'lga olib uning hukmdori bo'lishga muyassar bo'ldi. Mil.avv 928 yida fir'avn Sheshonk boshchiligidagi Misr qo'shinlari Iyerusalimni qo'lga oladilar. Shahar vayron qilinib, aholining ko'pchiligi asir olinadi;

- Mil.avv. IX asrda Ossuriya hukmdori Salamansar II Suriya, shu jumladan Falastinga zafarli yurishlar qilgan edi;

- Mil.avv. 722 yilda Ossuriya podshosi Sargon II Isroil poytaxti Samariyani bosib olgach, 27290 nafar yahudiylar asir olinib, Midiya va Mesopotamiyaga ko'chiriladi. Faqatgina Yahudiya podsholigi o'z mustaqilligini saqlab qoladi²;

- Mil. avv. 597 yilda Bobil podshosi Navuxodonosor II Iyerusalimni qo'lga oladi. Mil.avv 586 yilda esa u uzil- kesil Iyerusalimni yer bilan yakson kiladi. Qarshilik ko'rsatgan kuchlar tormor etilib, qolgan yahudiylar esa asir olinadi;

- Mil.avv. 539 yilda Bobil ahamoniylar imperiyasi tomonidan bosib olinadi.

- Shundan so'ng, Bobil mulklari ahamoniylar qo'l ostiga o'tgach, Kir II yahudiylarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lib, Mesopotamiya va boshqa yerlarda yashayotgan yahudiylarga o'zlarining tarixiy vatanlari sanalmish Isroilga qaytib ketishlari uchun imkoniyat beradi. Hatto u yerdagi vayronaga aylantirilgan ibodatxonani qayta tiklashlariga ruxsat beradi. Ammo yahudiylar, bu paytga kelib ahamoniylar saltanatining turli o'lkalariga tarqalib ketgan edilar;

Fransuz olimi Pyer Levekning yozishicha, ushbu davrda yer yuzida taxminan 8 millionga yaqin yahudiy istiqomat qilgan³. Ularning ko'pchiligi Bobil, Suriya, Anatoliya va Misrda bo'lgan.

Undan tashqari yahudiylar Kirenaika, Egey dengizi atrofidagi orollarda, Yunonistonda hatto Afrika, Italiya va Ispaniyagacha yetib borishgan.

Shunday bo'lsada, yahudiylar keyingi davrlarda ham ko'plab qiyinchiliklarni o'z boshlaridan o'tkazganlar. Darhaqiqat, ahamoniylar davlati Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olingach, yahudiylar ham uning saltanati tobeligiga o'tishgan. Aleksandr o'zi bosib olgan hududlarda yunon madaniyati, dinini yoyishga intilgan. Ammo u yahudiylarning o'z dinlariga e'tiqod qilishlariga, ajdodlaridan me'ros bo'lib qolgan urf-odatlarini o'tkazishga to'sqinlik qilmagan. Buning o'ziga xos sababi bor.

² Niyozov N. Buxoro yahudiylari tarixidan lavhalar. Buxoro. 2016. –B.17.

³ Пьер Левек. Эллинистический мир. М. 1989, стр. 41.

Rivoyatlarga ko'ra, u o'z qo'shini bilan jang qilish uchun Eron tomonga intilib, Yahudiya hududidan o'tayotganida, Iyerusalimdagi yahudiylar ibodatxonasining bosh ruhoniysi uning g'alaba qozonishi haqida bashorat qilgan ekan⁴.

Aleksandr vafotidan so'ng uning saltanati uch qismga bo'linib ketgach, Yahudiya avval Ptolomeylar, so'ngra Salavkiylar davlati qo'l ostiga o'tadi. Ptolomeylar davrida ham yahudiylar o'z milliyliklarini saqlagan holda, o'zlari xohlagandek yashaganlar.

Ptolomeylar va Salavkiylar o'rtasida bo'lib o'tgan kurashdan so'ng Yahudiya Salavkiylar saltanatining bir qismiga aylangach, Salavkiylar yahudiylarga nisbatan keskin choralarni ko'ra boshlaganlar. Ya'ni ularni ellin madaniyatini qabul qilishga, yunon xudolariga sig'inishga majbur qila boshlaganlar. Natijada, yahudiy xalqi bu nohaqliklarga qarshi bosh ko'targan.

Yahudiylar so'nggi nafaslari qolguncha erk, nomus deya kurashib, haqiqiy mardlik va jasorat ko'rsatadilar. Bu ozodlik kurashi salavkiylar hukmdori Antiox IV Yepifan (176-164) hukmronligi davrida bo'lib o'tgan. Ushbu qo'zg'olon ruhoniyy Mattafiya va uning o'g'li Iuda Makkavey nomi bilan bog'liq. O'z diniga sodiq bo'lgan Mattafiya, Modoin qishlog'ida, dushman tomoniga o'tib, ularning rasm- rusumlari bo'yicha ibodat qilayotgan ruhoniyydan nafratlanib uni o'ldiradi. Bundan ruhiy quvvat olgan uning o'g'illari va qishloq ahli Salavkiylar qishloqda qoldirib ketgan askarlarga tashlanib ularni yakson qiladilar. Shunday qilib, milliy ozodlik kurashi boshlanadi. Mattafiyadan so'ng bu kurashga o'g'li Iuda rahnamolik qiladi.

Yaqinlari unga Makkavey ya'ni «to'qmoq» deb murojaat qilishgan. U g'animga qarshi mardonavor kurashib, vatanini deyarli dushmandardan ozod qiladi. Iuda vafot etgach, uning tug'ishgan ukalari kurashni davom ettiradilar. Dastlab Ionafan so'ngra Simon davrida mamlakat hududini birlashtirish ishlari yakun topadi. Aynan Simon davrida xasmoneylar sulolasiga asos solinadi. Ammo mil.avv 63 -yilda Yahudiya Rim imperiyasi tomonidan bosib olinib, uning provinsiyasiga aylantiriladi. Yahudiylar shunda ham ozodlik, dinu diyonatlari uchun muntazam kurash olib boradilar. Bu kurashlar oshkora, goh yashirin tarzda davom etgan. Milodiy 66-yilda boshlangan milliy ozodlik harakati 70-yilga kelib uning mag'lubiyati bilan tugaydi. Rimliklar yahudiylar ibodatxonasini vayron qilib tashlaydilar⁵.

Ammo 131-135 yillarda bo'lib o'tgan Bar Koxba qo'zg'oloni Rim saltanatini dahshatga solgan. Rim imperatori Adrian (117-138) Britaniya va Ispaniyadan qo'shimcha kuchlarni ushbu qo'zg'olonni bostirish uchun jalb etgan.

Rimliklar qiyinchilik bilan bo'lsada ushbu qo'zg'olonni bostirganlar.

⁴ Хаим Герцог. Герои Израиля. Санкт-Петербург. 1992. стр. 48.

⁵ Niyozov N. Buxoro yahudiylari tarixidan lavhalar. Buxoro. 2016. -B. 16

Oqibatda besh yuzta mudofaa qo'rg'oni, mingta aholi yashaydigan qishloq yer bilan yakson qilinadi. Besh yuz mingdan ziyod aholi qirib tashlanadi. Omon qolgan yahudiylar asir olinib, ular bir umrga o'z vatanlaridan judo bo'ladilar.

Rim imperatori Adrian Bar-Koxba qo'zg'olonini bostirgach, yahudiylar o'z vatanlarini yodlaridan chiqarishlari uchun Iyerusalim nomini «Eliya Kapi- toliya»ga o'zgartirib, O'rta Yer dengizidan to Iordan daryosigacha bo'lgan hududni «Falastin Suriyasi» deya atashni buyurgan.

Ushbu qo'zg'olondan so'ng deyarli barcha yahudiylar ona vatanlaridan haydalib badarg'a qilinadi va buning natijasida ularning dunyo bo'ylab tarqalishi yanada tezlashadi. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, yahudiylar aynan shu voqeadan so'ng O'rta Osiyoga kirib kelganlar.

Tarixiy voqealarni birma-bir misol keltirish bilan ham yuqoridagi savolga, ya'ni yahudiylarning O'rta Osiyoga qanday kelib qolishganiga javob berish qiyin. Gap shundaki, ko'pchilik olimlarni, aynan qaysi voqeadan so'ng yahudiylarning O'rta Osiyoga kirib kelgani qiziqtirib kelmoqda va ular bu masalani yoritishda turlicha yondashadilar.

Ammo, shuni aytish kerakki, yahudiylarning O'rta Osiyoga aynan Eron orqali ko'chib kelganligi haqidagi fikr xaqiqatga yaqinroqdir. Chunki ahamoniylar davrida O'rta Osiyo uning tarkibida bo'lgan va natijada Yahudiylar o'zlari ma'qul ko'rgan joylarda shu jumladan bizning yurtimizga ham muqim o'rnatilib olganlar. O'ltaning qulay geografik hududda joylashganligi, tabiiy muhitning inson yashashi uchun qulayliklar yaratishi kabi omillar bunga sabab bo'lgan.

Yahudiylar yurtimizda mohir hunarmand, qo'li gul ustalar sifatida nom qozonishdan tashqari, Buyuk ipak yo'lidagi savdo ishlarida ham faol bo'lganlar. Ayrim tadqiqotchilar, yahudiylarning O'rta Osiyoga Eron orqali o'tib, dastlab Balxda o'z manzilgohlariga asos solishganligini keyinchalik esa ular Sug'd hududlariga ham o'ta boshlaganliklarini e'tirof etadilar.

Yana bir guruh tadqiqotchilar esa ular dastlab Marvga kirib kelib o'z manzilgohlariga asos solishganligini ta'kidlaydilar. Chunki, Marvdagi yahudiylar haqida ma'lumot beruvchi ilk yozma manba milodiy IV asrga borib taqaladi. Bu nafaqat Marvdagi balki O'rta Osiyo yahudiylari tarixini o'rganish bo'yicha ilk yozma manba hisoblanadi. Bu yozma manba Marvga vaqtinchalik tashrif buyurgan Bobillik amora (hurmat- e'tiborli ruhoniylar) Samuel bar Bisen nomi bilan bog'liq.

U Marvga kelganida, qarindoshlari tomonidan tayyorlangan maxsus spirtli ichimlikni ichishdan bosh tortgan. Sababi u, bu maxsus ichimlik tayyorlanishidan oldin, unga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimning pala-partish, noto'g'ri amalga oshirilganligining guvohi bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, yahudiylar bu hududlarga ancha oldin kirib kelgan bo'lib, yuqorida aytilganidek o'zlarining ba'zi bir urf-odatlarini unuta boshlaganlar.

Yahudiylarning Marv hududida milodiy IV asrga qadar bo'lganliklari haqida Marvdagi Erk qal'a qo'rg'onidan topilgan arxeologik topilmalar, shu jumladan topilgan ikki dona sopol idishdagi

yo'zuvlar guvohlik beradi. Sopol idishlarning birinchisi milodiy I-III asrlarga, ikkinchisi esa milodiy II-III asrlarga oidligi aniqlangan bo'lib, ularda yozilgan so'zlar yahudiy tilidagi so'zlarga o'xshash ekanligi isbotlangan⁶. Arablar bosqini arafasida yahudiylar O'rta Osiyoning keng hududlari bo'ylab tarqalgan edilar.

REFERENCES

1. Пьер Левек.Эллинистический мир.М.1989
2. Хаим Герцог.Герои Израиля.Санкт-Петербург.1992
3. Niyozov N.Buxoro yahudiylari tarixidan lavhalar.2016
4. Muxamedovna, G. M. (2023). МАКТАBLARDA ТАРИХ FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
5. Muxamedovna, G. M. (2023). ТАРИХ FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
6. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
7. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
8. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
9. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.
10. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
11. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.
12. Gadayeva, M. (2023). ONE OF THE TIMURID QUEENS IS BIBIKHONIM. *Modern Science and Research*, 2(12), 749-754.
13. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.

⁶ Niyozov N.Buxoro yahudiylari tarixidan lavhalar.Buxoro. 2016.-B.18.

14. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEXANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
15. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
16. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
17. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
18. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).
19. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
20. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
21. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
22. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
23. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
24. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
25. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
26. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
27. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.

28. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
29. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
30. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
31. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev's Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 655-659.
32. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
33. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
34. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
35. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
36. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
37. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
38. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401
39. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
40. Yuldosheva, F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING "QADIMGI TURKLAR" ASARIDA KO'KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338-342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3908>
41. Ahmadov, A., & Rasulova, M. M. qizi. (2023). BUXORO YAHUDIYLARINING MILLIY BAYRAM VA MAROSIMLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 373-376. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3068>